

ICHKI ISHLAR ORGANLARI VA ULAR XODIMLARINING IMIJINI OSHIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUVLAR



BERDIALIYEV
Baxtiyor Erkinovich
O'zbekiston Respublikasi
Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig'i,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)



OLLAMOV
Yarash Yo'ldoshovich
O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
yetakchi ilmiy xodimi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri – ichki ishlar organlari va ular xodimlarining imijini yaratish masalasiga e'tibor qaratgan. Ilm-fan tarixida kasbiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxs obrazining shakllanish shart-sharoitlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ichki ishlar organlari va ular xodimlarining imijini o'rganishning ikki xil – falsafiy va sotsiologik yondashuvi taqdim etilgan. Falsafiy qarashlar va sotsiologik nuqtayi nazarlarni ichki ishlar organi xodimi obrazi bilan taqqoslash jarayonida muallif imijni shakllantirishga qo'yiladigan asosiy talablarning o'xshashligini qayd etadi.

Kalit so'zlar: siyosiy-huquqiy ta'limotlar, g'oyalar, nazariyalar va ta'limotlar, falsafiy va sotsiologik yondashuv, imidj, jamoatchilik fikri, militsiya xodimi, axloqiy-ma'naviy fazilatlar, ichki ishlar organi xodimi uchun talablar, xulq-atvor normalari.

Аннотация. В статье рассматривается одна из актуальных на сегодняшний день тем – формирование имиджа органов внутренних дел и их сотрудников. В истории науки изучены условия и предпосылки формирования образа личности, занимающейся профессиональной деятельностью. Также представлены два подхода к изучению имиджа органов внутренних дел и их сотрудников – философский и социологический. В процессе сопоставления философских взглядов и социологических точек зрения с образом сотрудника органа внутренних дел автор отмечает схожесть основных требований, предъявляемых к формированию имиджа.

Ключевые слова: политико-правовые учения, идеи, теории и доктрины, философский и социологический подход, имидж, общественное мнение, сотрудник милиции, нравственно-духовные качества, требования к сотруднику органа внутренних дел, нормы поведения.

Abstract. The article focuses on one of today's most pressing topics - the issue of creating the image of internal affairs bodies and their employees. In the history of science, the conditions for the formation of the image of a person engaged in professional activity are examined. The article presents two different approaches to studying the image of internal affairs bodies and their employees - philosophical and sociological approach. In the process of comparing philosophical views and sociological perspectives with the image of an internal affairs officer, the author notes the similarity of the main requirements for image formation.

Key words: political and legal doctrines, ideas, theories and teachings, philosophical and sociological approach, image, public opinion, police officer, moral and spiritual qualities, requirements for internal affairs officers, norms of conduct.

Sharq va g'arb mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy ta'limotlari bo'lajak yuristlarning dunyoqarashini shakllantirib, davlat, huquq, adolat, siyosat, qonuniylik to'g'risidagi bilimlarini boyitishga, davlat va huquq sohasidagi g'oyalar, qarashlar, mulohazalar, nazariyalar, konsepsiyalar, ta'limotlarning mazmun va mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Ming yillar davomida insoniyatning buyuk daholari – Sharqda Konfutsiy, Forobiy, Amir Temur, Beruniy, Alisher Navoiy, Bobur, Yusuf Xos Xojib, Burhoniddin Marg'inoniy va G'arbda Suqrot, Aflo-tun, Arastu, Sitseron, Geraklit, N.Makiavellilardan tortib boshqa mutafakkirlar tarixiy taraqqiyotning ichki mantig'ini tushunishga va shu asosda jamiyatni boshqarishning eng maqbul, adolatli usullarini joriy etishga harakat qildilar.

O'zbek milliy davlatchiligimizning asoslari o'tmish tarixiy tajribamizda, qadim davrlardayoq ilgari surilgan siyosiy-huquqiy g'oyalarda va davlatchilik faoliyatimizda o'z ifodasini topgan. Bu tajribamizni, uning siyosiy-huquqiy ta'limotlarini har tomonlama o'rganish muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu g'oyalar qadim Turondagi ilk yozma manbalar "Avesto"da, "Shohnoma"da, diniy ta'limotlarda, jahon tan olgan Markaziy Osiyolik qomusiy olimlarimizning qarashlarida, shuningdek mustaqillik yillarida yaratilgan asarlarda ifodalangan. Ana shunday g'oyalar sohibi bo'lgan yuqori malakali ichki ishlar xodimlarini tayyorlash davr talabidir.

O'tgan asrning 1990-yillarda hayotimizga yangi bir haqiqat mustahkam kirib keldi va u kundalik turmushimizda tubdan boshqacha talablarni qo'ya boshladi. Bu nafaqat ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, balki axborot oqimi-ning keskin oshishi bilan ham bog'liq bo'lib, ijtimoiy tarmoqlar orqali bugungi kunda nafaqat alohida fuqarolar, balki tashkilotlar uchun ham ijobiy imijni shakllantirish zarurati haqida yanada ko'proq turtki bermoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'zining ijobiy imijini (qiyofasini) shakllantirishga tobora ko'proq harakat qilib kelmoqda, ular orasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan ichki ishlar organlari ham muhim o'rin egallaydi.

I. Imijni tushunishga bo'lgan falsafiy yondashuv. Ushbu ilmiy maqolada, ichki ishlar organlari va ular xodimlarining imijini tadqiq etishning

nazariy asoslarini ishlab chiqish borasida, bir tomondan, faylasuflarning davlat arbobi qiyofasini shakllantirish haqidagi qarashlarini tahlil qilish, imijni tushunishga bo'lgan sotsiologik yondashuvni ko'rsatish, ikkinchi tomondan, Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan ichki ishlar organlari xodimlarining imijini o'rganish borasida amalga oshirilgan aholining mazkur organ xodimlarining faoliyati haqidagi fikrlarini bayon etish, shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlarining ijobiy imijini shakllantirishning kelgusi imkoniyatlarini aniqlash kabi vazifalar qo'yilgan.

Texnologiyalar yuqori darajada rivojlangan hozirgi zamonaviy ulkan axborot resursi atrof-muhit va insoniyatning o'zi haqidagi kognitiv bilimlari tizimini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur tendensiyadan kelib chiqib, bizningcha, o'zini va atrofdagi dunyoni kuzatishga qodir, mulohaza yuritadigan va gipotezalar chiqara oladigan inson, xususan bizning mavzumizda ichki ishlar organi xodimi, obrazini yaratish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Ko'p ming yillar davomida insonning imijini shakllantirishga bo'lgan qiziqish saqlanib kelgan. Shu bilan birga, hayot faoliyati jarayonida ushbu tasavvurlar transformatsiya (o'zgarish)ga uchramoqda.

Qadimgi sharq davlatlarida (imij masalasida) diniy-afsonaviy, siyosiy va huquqiy qarashlarning shakllanishi va rivojlanishi o'ziga xos tarzda yuz berdi. Siyosiy-huquqiy ta'limotlarning nazariy bilim sifatida vujudga kelishi ilk afsonaviy tasavvurlarning bosqichma-bosqich ratsionallashuvi mobaynida kechgan. Bu jarayonlarni bilishda, ayniqsa qadimgi Xitoy, Hindiston, Bobil, Gretsiya, Rimda yaratilgan qator asarlarda va Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy ma'naviy-tarixiy merosi bo'lgan "Avesto"da saqlanib qolgan ma'lumotlar g'oyatda qimmatlidir.

Imij bilan bog'liq diniy tasavvurlar. Imij bilan bog'liq siyosiy-huquqiy tafakkurning paydo bo'lishi barcha qadimgi xalqlarda dastlabki diniy afsonalarga borib taqaladi hamda insonning dunyodagi o'zni haqidagi afsonaviy tasavvurlarga suyanadi.

Masalan, qadimgi Misrda "Gerakleopol shohi o'gitlari" (eramizdan avvalgi XXII asr oxiri)da "... odamlarni hech qanday adolatsizlikka va qonun-

sizlikka yo'l qo'ymaslikka undovchi da'vatlar..." [1; 19-b.], eramizdan avvalgi II asrga kelib qadimgi Shumer afsonasida "Shamash xudosi adolat rah-namosi va oqizlar himoyachisi sifatida tasvirlanadi".

Zardushtiylik ta'limotida rostlik va haqiqat uchta ma'naviy – huquqiy tayanchga asoslanadi: ezgu fikr, ezgu kalom (so'z), ezgu amal (ish). Zardusht davlatni adolatli qonunlar asosida bosh-qarib, bu uchlikka amal qilish yolg'onchilik va adolatsizlik peshvosi Axrimanning mag'lubiyatga uchrashiga ishonsa, qalbi haddan ziyoda pokiza bo'ladi, deb uqtiradi: "Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman" ("Yas-na", 14) [2; 20-b.]. Demak, "Yaxshi fikr" deganda ilohiy qonun ruhida yiqin kishisiga mehribon bo'lish, muhtojlarga ko'maklashish, yovuzlikka qarshi kurashishga doim tayyor turish, kishilarning baxt-saodati uchun harakat qilish, ahilliku va do'stlik totuvlikda yashashga intilish kabi niyatlar va fikrlar musaffoligi tushunilgan. Yaxshi niyatli kishi darg'azab bo'lmaydi va jaholatga berilmaydi. Agar jaholatga berilsa, inson yaxshi niyatini yo'qotadi, burch va adolat haqida o'ylamay, nojo'ya harakat-lar qilishi mumkin [2; 21-b.].

Yuqoridagi afsonaviy tasavvurlardan kelib chiqqan holda hozirgi zamonaviy ichki ishlar organi xodimi o'z ish faoliyati va kundalik hayotida adolatsizlikka va qonunsizlikka yo'l qo'ymasligi, oqizlar himoyachisi bo'lishi, shuningdek ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal bilan ish tutishi kerakligi namoyon bo'ladi.

Imij bilan bog'liq umumiy qarashlar. Ijoiy imij faqat muayyan bilimlar mavjud bo'lgan taqdir-dagina shakllantirilishi mumkin degan qarash hozirgi kunda ham dolzarb hisoblanadi. Shu tariqa, ichki ishlar organlariga xizmatga birinchi marta qabul qilinayotgan fuqarolar kasbiy tayyorgarlikdan o'tib, xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus bilimlarni egallaydilar.

Shuningdek, imij bilan bog'liq siyosiy-huquqiy tafakkurlar qadimgi Xitoy faylasufi Konfutsiy siyosiy ta'limotining asosiga "de" – fazilat prinsipi qo'yilgan bo'lib, u boshqaruvda ishtirok etuvchi insonlarga tatbiq etiladi. Ushbu prinsipga ko'ra, boshqaruv-chilar mukammal insonlar bo'lishi kerak: ularni insoniylik, burch va adolat hissi, bilimga intilish, sadoqat, muloyimlik va kattalarga hurmat kabi fazilatlar ajratib turadi.

Konfutsiy o'z mulohazalarida davlat boshqa-ruvida barqarorlikni jamiyat faoliyatini aniq tashkil etish va shaklga solishda ko'rgan. U dono hukmdor urf-odatga xos amallar to'plamiga, ya'ni axloqiy qonunga nisbatan ehtirof hissini fuqarolarda tarbiyalash orqali boshqarish, zo'ravonlikka esa faqat oxirgi vosita sifatida murojaat qilish kerak, deb hisobladi.

Forobiyning fikricha, quyidagi oltita talabga javob beradigan shaxsni davlat tepasiga qo'yish mumkin: "... qonunlarni, urf-odat va qoidalarni biladigan, xotirasi kuchli, o'z xatti-harakatlarida jamiyat qonunlariga amal qiladigan va boshqa-lardan ham shuni talab qiladigan ... har qanday vaziyatda ahvolni tez anglab oladigan, chora-tadbirlarni qo'llay oladigan, fahm-farosatli, eng oliy maqsadi shahar farovonligini ta'minlash, harbiy yurishlarda mohir, ya'ni ham harbiy san'atda, ham davlatni boshqarish san'atida yuksak mahorat egasi bo'lishi kerak" [1; 75–76-b.].

N. Makiavelli o'zining "Hukmdor" nomli asarida hukmdor uni hurmat qilishlari uchun qanday yo'l tutishi kerakligi, hukmdorlarni nima uchun maq-tashlari yoki qoralashlari kerakligi to'g'risidagi asosiy qoidalarni bayon etgan. Asosiy g'oya muayyan xulq-atvor uslubini tanlash va muayyan fazilatlarini namoyon etishdan iborat. Boshqacha aytganda, hukmdor qiyofasini shakllantirish hokimiyatning to'lig'icha amalga oshirilishiga xizmat qilgan. Makiavellining "Hukmdor" asarida "hukmdor uchun eng muhimi – barcha ezgu amallari bilan o'zini buyuk inson, o'tkir aql egasi sifatida tanitib shuhrat qozonishga intilishdir", "barcha odamlarda, ayniqsa boshqalardan yuqori turuvchi hukmdorlarda maqtashga yoki qoralashga loyiq bo'lgan u yoki bu sifatlar kuzatiladi" [3]. Shunday qilib, "... oqil hukmdor uni taxtdan mah-rum etishi mumkin bo'lgan nuqsonlardan uzoq-lashishi, qolganlaridan esa imkon qadar tiyilishi kerak, xolos" [4; 86-b.], "... hukmdor uchun eng muhimi – o'zining barcha xatti-harakatlari uchun o'zi haqida teng yo'l hikmat egasi bo'lmish buyuk inson siymosini yaratishdir" [4; 118-b.].

Masalan, Makkiavelli qarashlarida ichki ishlar xodimi uchun quyidagi umumiy talablar nazarda tutilgan:

inson va fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etish va ularni himoya qilish;

o'z sha'ni va qadr-qimmatini saqlashga e'tibor qaratish;

shaxsiy manfaatdorlik sababli qarorlar qabul qilishga yo'l qo'ymaslik, xizmat vazifalarini bajarish chog'ida xodimning obyektivligi, adolatligi va beg'arazligiga shubha tug'diradigan, shuningdek uning obro'siga va ichki ishlar organi nufuziga putur yetkazadigan xatti-harakatlarni sodir etmaslik;

fuqarolarga nisbatan hurmat, xushmuomalalik va odob bilan munosabatda bo'lish;

betaraflikni saqlash, siyosiy partiyalar, boshqa jamoat birlashmalari, diniy va boshqa tashkilotlar, kasbiy yoki ijtimoiy guruhlar, fuqarolarga afzallik bermaslik, biror tomonni ustun qo'ymaslik;

davlat organlari, mansabdor shaxslar, siyosiy partiyalar, boshqa jamoat birlashmalari, diniy, kasaba uyushmalari va boshqa tashkilotlar yoki ijtimoiy guruhlar hamda fuqarolarga nisbatan fikr bildirmaslik va baho bermaslik, agar bu uning xizmat vazifalariga kirmasa.

Bundan tashqari, yuqorida keltirilgan mutafak-kirlarning ham siyosiy-huquqiy qarashlarida ichki ishlar organi xodimi imijini shakllanishining universal qoidalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tad-qiqot institutining "Ichki ishlar organlari xodim-larining imijini rivojlantirishning samarali mexa-nizmlari" nomli ilmiy-amaliy tadqiqot loyihasi doirasida 2025-yilda o'tkazilgan **"Ichki ishlar organlari xodimlarining imiji darajasini aniqlash va uni oshirish"** mavzusi bo'yicha tadqiqot natijalari ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatiga nisbatan aholi orasida asosan ijobiy munosabat shakllanganligini ko'rsatishi bilan birga, muayyan salbiy fikrlar bir necha asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ldi.

Masalan, respondentlarning taxminan 4–5 foizi xodimlarning qo'pol yoki bosim o'tkazuvchi munosabatini ta'kidlaganlar. Shu bilan birga, qariyb 60 foiziga yaqin qismi esa xodimlar qo'pol muo-mala qilishlari va fuqaro huquqlarini to'liq tushun-tirib bermasliklarini ichki ishlar organlari faoliyatiga salbiy ta'sir qiluvchi eng asosiy omillardan biri sifatida baholaganlar. Ushbu holatlar ichki ishlar organlari va aholi o'rtasida o'zaro ishonch munosa-batlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, fuqarolarning ochiq muloqotga kirishish ehtimolini pasaytirishi tabiiy. Bu esa xodimlarning muomala madaniyati

darajasini oshirish borasida hali ishlash kerakligini ko'rsatadi.

Bilim – imijning asosi. Konfutsiy ta'limoti bo'yicha boshqaruvchi rahbar "... yetarli bilimga ega bo'lishi, davlat va xalqqa faqat yaxshilik yo'lida xizmat qilishi shart. Yuksak vatanparvarlik aholi va mamlakat farovonligini o'ylaydigan boshliqning asosiy fazilati bo'lmog'i lozim" [1; 30-b.]. Qadimgi Xitoydagi muhim ijtimoiy va siyosiy-huquqiy ta'limotlardan yana biri Legizm (qonuniylik maktabi) asosiga davlat hokimiyatida "... tegishli bilim, ijobiy fazilatga ega kishilar boshqaruvni egallashlari lozim"ligi [1; 34-b.] to'g'risidagi g'oyalar yotadi.

Pifagor ta'limoti negizida ham boshqaruvda faqat bilimli davlat arboblari ishtirok etishi mumkin, ular nafaqat bilimli, balki insonparvar ham bo'lish-lari kerak, degan g'oya mavjud.

Suqrotning fikriga ko'ra, "davlatni bilimdonlar boshqarishi kerak".

Shuningdek, Aflotun o'zining "Davlat" asarida davlatni donishmand faylasuflar boshqarishi lozimligini ta'kidlaydi.

Suqrotning etik-siyosiy qarashlari "hokimiyat eng yaxshilarga tegishli bo'lishi kerak" [1; 64-b.], degan g'oyaga asoslanganligi bilan qiziqarli. Huquq va erkinlik o'rtasidagi munosabat muam-mosini muhokama qilar ekan, u bilimlarga alohida muhim o'rin ajratadi. Uning fikriga ko'ra, bilimlarni egallash darajasi insonlarning muayyan ilohiy timsolga daxldorlik darajasini va, shu bilan birga, jamiyat hayotida adolat darajasini belgilaydi. Bilimsiz axloq nafaqat takomillashmaydi, balki umuman mavjud ham bo'lmaydi va aksincha, bilim to'liq bo'lsa, axloq ham to'liq bo'ladi. Suqrot bilim od-diy fikrdan ko'ra muhimroq ekanligini birinchilardan bo'lib anglagan edi.

Yusuf Xos Xojibning fikricha, "Odamzod nasli aslida yer yuzidagi barcha jonlilar orasida eng ulug'idir, ammo bu ulug'lik bilim bilangina to'liqlik, mukammallik kasb etadi".

Konfutsiy, Pifagor, Suqrot va Yusuf Xos Xojib qarashlaridan ichki ishlar organlari xodimi imijini shakllantirishda foydalanish mumkin. Shuningdek, ularning g'oyalardan ichki ishlar organlari xodimlari tegishli bilimga, aql-idrok va zakovatga, ijobiy fazilatlariga ega bo'lishlari, davlat va xalqqa faqat yaxshilik yo'lida xizmat qilishlari shartligi va yuksak

vatanparvar bo'lishlari kerakligi, ularda insoniylik, burch va adolat hissi, bilimga intilish, sadoqat, muloyimlik va kattalarga hurmat kabi fazilatlar ajratib turishi kerakligi to'g'risida xulosa kelib chiqadi.

Yuqoridagi mutafakkirlarning fikrlari o'tkazilgan tadqiqotlarda ham to'liq tasdiqlanadi. Masalan, so'rov natijalari ko'ra, qariyb 20 foiz respondent ortiqcha qog'ozbozlik, 7 foizga yaqini murojaatlari to'liq ko'rib chiqilmaganligini, qariyb 5-6 foizi samarasizlik holatlarini qayd etganlar. Bu ko'rsatkichlar ichki ishlar organlari faoliyatida ayrim jarayonlarda byurokratik to'siqlar mavjudligini, shuningdek natijadorlik ta'minlanmaganligini ko'rsatadi.

Adolat – imijning tarkibiy qismi. Abu Rayxon Beruniy “jamiyat podshohga xizmat qilmay, podshoh jamiyatga xizmat qilishi kerak”ligini alohida uqtiradi. “Idora qilish va boshqarishning mohiyati zolimlardan aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, birovlarining tinchligi yo'lida o'z tinchligini yo'qotishdir. Bu ularning oilasini, ularning hayoti va mol-mulkini himoya qilish va qo'riqlash yo'lida badan charchashidan iboratdir”. Shuningdek, allomaning fikricha, “odil hokimning vazifasi oliy va past tabaqalar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik, adolat o'rnatishdan iboratdir”.

Burhoniddin Marg'inoniyning huquqiy qarashlari uning “Al-Hidoya” kitobida bayon etilgan bo'lib, unga ko'ra, qozilik vazifasiga shunday kishilar tayinlanmogi lozimki, u kishi shu vazifani bajara olishi, fiqh ilmini yaxshi bilishi, qarorlar qabul qila bilishi, adolat tarafdori bo'lishi lozim.

Amir Temurning “Oralarigizga adolat urug'ini sochuvchi shaxslarga ziyraklik bilan qarang. Qayerda qonun hukmron bo'lsa, u yerda adolat bo'ladi”, degan so'zlarida qonuniylik va qonun oldida barcha tengligi nazarda tutilgan.

Yusuf Xos Xojib “Qutadg'u bilig” asarida qayd etishicha, el uchun ikki narsa mustahkam tayanchdir: biri hushyorlik, ikkinchisi adolat. Ikkalasi adolat ildizidir” [1; 79, 88, 97, 106-b.].

Abu Rayxon Beruniy, Burhoniddin Marg'inoniy, Amir Temur va Yusuf Xos Xojiblarining g'oyalaridan ichki ishlar organlari xodimlari xalq yo'lida xizmat qilib kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik, adolat o'rnatishlari kerakligi ayon bo'ladi.

Yuqoridagi mutafakkirlarning g'oyalari hozirgi davrda ham dolzarb bo'lib, respondentlarning

muayyan qismi korrupsiya va jinoyatchilik bilan bog'liq xavotirlikni bildirganlar. Xususan, 26–27 foiz respondent mansab vakolatlarini suiiste'mol qilishni salbiy omil sifatida qayd etgan bo'lsa, qariyb 12 foizi tamagirlik holatlarini tilga olganlar. Shuningdek, respondentlarning sezilarli qismi ichki ishlar organlari faoliyati yetarlicha chuqur va hayotiy tarzda yoritilmayotganligini ta'kidlaganlar. Jumladan, taxminan 25–30 foiz respondent ushbu faoliyat faqat rasmiy jihatdan yoritilayotganligini bildirganlar.

Respondentlarning fikrlari jamiyatda ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan ma'lum darajada ishonchsizlik elementlari saqlanib qolayotganligini va tizim shaffofligi masalasi dolzarbligini ko'rsatadi.

Professionalizm – imijning kasbiy yo'nalishi. “Tashabbus jazolanadi” degan fikr ichki ishlar organlari xodimlari orasida keng tarqalgan. Shu munosabat bilan ichki ishlar organlari xodimlarining shaxsiy imkoniyatlari to'liq namoyon bo'lmay qoladi, bu esa noto'g'ri shakllangan imijning yuzaga kelishiga xizmat qiladi.

Kasbiy yo'lni tanlash haqida gapirganda, ushbu tanlov ongli ravishda amalga oshirilishi, kasbiy burchni bajarish bilan bog'liq qiyinchiliklarni anglash muhim ekanligini alohida ta'kidlash lozim, bu esa ichki ishlar organi xodimi uchun ko'pincha uning hayoti va sog'lig'iga nisbatan xavf bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, ma'lum darajada bilimga erishish uchun Aflotun har qanday faoliyatni o'rgatishni bolalikdan boshlash kerak, deb hisoblagan, bu esa mahorat sirlarini anglab olish maqsadida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, Aflotunning fikriga ko'ra, har qanday ishda professionalizm “biror narsadan foydalanishni bilish, uni tayyorlashni bilish va uni tasvirlashni bilish” [5; 195-b.] kabi uchta jihatdan iborat.

Ichki ishlar organi xodimi uchun ushbu jihatlar o'qotar qurolni egallash va uni qo'llash, jismoniy kuchdan foydalanish, murakkab tezkor vaziyatda qisqa vaqt ichida mustaqil qaror qabul qila olish va harakat qilish qobiliyati nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilishi mumkin.

Germaniyalik ta'lim islohotchisi M.Lyuterning bu boradagi qarashlari boshqacha bo'lib, uning nuqtayi nazariga ko'ra, tashkilotning siyosiy jihatdan tashkil etilishning o'ziga xosligi shaxs yoki ijrochida

emas, balki xizmat yoki vazifada namoyon bo'ladi. Davlat institutlari mansabdor shaxslarga nisbatan barqaror hisoblanadi. Odamlarni xizmatlar bo'yicha taqsimlash ko'p hollarda (lekin har doim emas) ularning tabaqalar bo'yicha taqsimlanishiga mos keladi.

Bu borada o'tkazilgan tadqiqotlarda respondentlarning bir qismi ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligiga tanqidiy yondashgan. Jumladan, taxminan 24 foiz respondent xodimlarda professional bilim yetishmasligini qayd etgan bo'lsa, qariyb 13 foizi past darajadagi kasbiy va harbiy tayyorgarligini salbiy omil sifatida baholagan. Bu holat ayrim vaziyatlarda xodimlarning qaror qabul qilish sifati va xizmat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy.

Ijoiy fazilat imijning o'ziga xos jihati. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel “haqiqiy davlat arbobi qiyofasi eng avvalo ijobiy fazilatlar, ya'ni yaxshilik va ezguliklar bilan bog'liq bo'lib u fuqarolarni fazilatli va qonunlarga itoatkor qilishni istaydi” [6; 284-285-b.], degan edi.

Ichki ishlar xodimining harakatlarida, ya'ni huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktik ishlarni olib borish jarayonida “fazilat” sifatidagi yaxshilik va ezgulik belgilari namoyon bo'ladi, ushbu “fazilat” xodimni doimo noqonuniy harakatlardan tiyilishga undaydi.

Sitseronning falsafiy qarashlari ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplaridan biri – xolislikni juda aniq ochib beradi. Sitseron davlat rahbari oqil, dono va adolatli bo'lishi kerak, deb hisoblagan. Aql – ruhning eng oliy va eng afzal qismi bo'lib, u “shohona hukmdor” sifatida insondagi barcha tuban his-tuyg'ular va ehtirolarni (ochko'zlik, hokimiyat va shuhratga chanqoqlik va h.k.)ni jilovlab turadi, ya'ni “ruhning isyoni”ni boshqaradi. Sitseron “donishmandlik hukmron bo'lgan joyda ehtirolar, g'azab va o'ylamasdan sodir etilgan harakatlarga o'rin qolmaydi” [7], deya ta'kidlaydi.

Qonunchilik talablariga muvofiq, ichki ishlar organi xodimi fuqarolarning milliy urf-odat va an'alariga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, turli etnik va ijtimoiy guruhlar, diniy tashkilotlarning madaniy va boshqa xususiyatlarini inobatga olishi, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikka ko'maklashishi lozim. Shuningdek, ichki ishlar organi

xodimi xizmat vaqtida ham, xizmatdan tashqari vaqtda ham o'zining xolisligiga shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan yoki ichki ishlar organi obro'siga putur yetkazadigan har qanday harakatlardan o'zini tiyishi shart.

Xizmat xulq-atvoriga nisbatan qo'yiladigan talablar ichki ishlar organi xodimlariga ham tatbiq etiladi va ular “ijoiy” yoki “salbiy” xodim haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy”, “Mahbub-ul-qulub” va boshqa asarlarida halollik, poklik, rostgo'ylik, imonlilik, singari insonga yarashliq axloqiy-ma'naviy fazilatlar e'zozlanadi. Bunday xislatlar esa insonni, xususan ichki ishlar organi xodimini yanada ulug'laydi. A.G. Lebon fikriga ko'ra, omma psixologiyasini o'rgangan holda, olomon ongini egallashda shaxsiy joziba muhim rol o'ynaydi. “Biroq olomon bo'ysunishi uchun u avvaldan ma'lum bir sharoitlar bilan tayyorlangan bo'lishi kerak, eng muhimi esa – uni o'ziga ergashtirmoqchi bo'lgan shaxs “joziba” deb ataluvchi alohida xislatga ega bo'lishi lozim” [8]. Bu joyda ta'kidlash joizki, o'tkazilgan so'rovlar ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan bo'lgan ishonchni baholash bo'yicha jamoatchilik fikri 34,7 foizni tashkil etadi [9].

Shu munosabat bilan, ichki ishlar organlari xodimi davlat va jamoat arbobiga xos ayrim ko'nikmalarga ega bo'lishi, jabrlanuvchida ham, qonun buzuvchida ham ishonch uyg'ota olishi lozim.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijobiy fazilat sifatida garchi umumiy ishonch darajasi yuqori bo'lsa-da, aholining muayyan qismida ishonchning to'liq shakllanmaganligi kuzatiladi. Taxminan 9 foizga yaqin respondent xodimga nisbatan “deyarli ishonmayman” yoki “umuman ishonmayman”, degan fikrni bildirgan. Shuningdek, respondentlarning taxminan 4 foizida ariza berishdan xavotirlik (qo'rqish) va ishonchsizlik hissi paydo bo'lgani ham qayd etilgan. Ushbu holat ichki ishlar organlariga bo'lgan ishonch darajasi barcha qatlamlarda bir xil darajada emasligini ko'rsatadi.

“Yaxshilar” – imijning alohida sifati. Geraklit “... hokimiyatni aqliy va axloqiy jihatdan “yaxshilar” boshqarishi kerakligini ta'kidlagan. Pifagor va Geraklit uchun umumiy bo'lgan va keyingi mutafakkirlarga katta ta'sir ko'rsatgan

yondashuv shundan iborat ediki, ular asilzodalik kelib chiqishiga emas, balki odamning shaxsiy xususiyatlariga bog'liq degan tushunchani ilgari surdilar.

Demokritning fikricha, davlatda umumiy manfaat va adolat o'z ifodasini topgan. Davlat manfaatlari hamma narsadan ustun turadi, shuning uchun ham fuqarolar faoliyati davlat tuzumini va boshqaruvini yaxshilashga qaratilmog'i lozim. Donishmandning nazariyasiga ko'ra, "yaxshilar" o'tmishdagi asilzodalar va boylar emas, balki yuksak aqliy va axloqiy fazilat sohiblaridandir. Davlatni aynan shunday kishilar boshqarishlari kerak" [1; 61-b.].

Aflotunning ideal davlati – yaxshilarning adolatli boshqaruvidir. Shunga ko'ra u Suqrotning "qonuniy" va "adolatli" degan tushunchalari aynan bir narsa degan g'oyasiga qo'shiladi.

Shunday qilib, Suqrot, Pifagor, Geraklit va Aflotunning siyosiy-huquqiy qarashlarida qayd etilgan "yaxshilar" – bu bizning misolimizda aqliy va axloqiy jihatdan yetuk sifatlarga ega va adolat qo'riqchilari bo'lgan ichki ishlar organlari xodimlaridir.

O'zbek davlatchiligi rivojlanishining g'oyaviy-tarixiy tajribasiga tayanish konstitutsiyaviy tamoyil bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Muqaddimasida ko'rsatib berilgan, ya'ni O'zbekiston o'z milliy davlatchiligini tiklashda o'z davlatchilik tarixiga tayanishi ilgari surilgan [18; 3–4-b.].

Ayniqsa, bu borada O'zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" [11; 27-b.], degan so'zlari diqqatga sazovor. Ushbu ta'kid Davlat rahbarining barcha ma'ruza, nutq va asarlarida O'zbekistonning bundan buyongi siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarida keng yoritib kelinmoqda. Prezidentimizning ushbu g'oyalaridan Ichki ishlar vazirligi davlat idorasi sifatida xalqimizga xizmat qilishi kerakligi to'g'risida xulosa kelib chiqadi.

Yuqoridagi mutafakkirlarning g'oyalari, nazariyalari va ta'limotlarida qonunlar, urf-odat, qoidalarini bilish, ularga rioya qilish va boshqalardan ham shuni talab qilish, tegishli qarorlar qabul qila bilish va chora-tadbirlarni qo'llay olish, shuningdek fahm-

farosatli, adolatli, bilimli, aql-idrokli va zakovatli bo'lish, halollik, poklik, rostgo'ylik, imonlik singari insonga yarashqli axloqiy-ma'naviy fazilatlar e'zozlangan.

Subyektiv voqelikni aks ettirish nafaqat shaxsiy bilish jarayonida, balki jamiyat ta'siri ostida ham shakllanadi. O'z dunyoqarashini shakllantirishga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar sifatida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda (xususan, Internetda) namoyon bo'ladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ichki ishlar organlari va xodimini obrazini o'rganishga bo'lgan qiziqish nafaqat uning davlat hokimiyati vakili ekanligi bilan, balki xizmat vazifalarini bajarish jarayonida turli ijtimoiy guruhlar bilan o'zaro hamkorlik qilishi bilan ham bog'liq.

Masalan, yo'l-patrul va patrul-post xizmati xodimlari har kuni O'zbekiston fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan muloqotga kirishadilar. Odatda, ichki ishlar organi xodimi bilan bo'ladigan har qanday muloqot majburiy tavsifga ega bo'ladi, shuning uchun nutq madaniyati, tashqi ko'rinishi, kasbiy bilimdonligi, diplomatik va boshqa shu kabi omillar ham ichki ishlar organi xodimiga bo'lgan ishonchning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Fikr – bu tasavvurlar majmuasidir. Sharq va g'arb mutafakkirlarining yuqoridagi fikrlarini umumlashtirsak, ularning inson fazilatlarini to'g'risidagi g'oyalari deyarli o'xshash ekanligini ko'rishimiz mumkin.

"Imij" so'zi ilmiy, ishbilarmonlik va publitsistik nutqda taxminan o'tgan asrning o'rtalarida qo'llanila boshlanganiga qaramasdan, jamiyat rivojlanishining ilk bosqichlarida ham insonning ijtimoiy maqomiga qarab qanday xulq-atvorga ega bo'lishi kerakligi haqida tasavvurlar shakllangan va barcha davrlarda davlat arboblari hamda hokimiyat vakillarining faoliyatida asosiy ko'nikmalardan biri ommaviy onga ta'sir o'tkazish bo'lib kelgan.

II. Imijni tushunishga nisbatan sotsiologik yondashuv. "Imij" so'zining o'zbekcha tarjimasi "qiyofa", "obraz", "nufuz", "tashqi ko'rinish", "timsol" haqidagi tasavvurlarni hosil qiladi. Imij – so'z yoki gapning atrofida ma'noni belgilab beruvchi muhit, ya'ni uning qanday sharoitda ishlatilganini anglatadi va shunga qarab turlicha, ya'ni shaxsga nisbatan – "qiyofa" yoki "timsol" ("obraz"),

tashkilotga nisbatan "nufuz", "obro'-e'tibor" degan ma'noni beradi.

"Imij" so'zining kelib chiqishi masalasida shuni ta'kidlash joizki, psixologik ta'sir vositasi sifatida u ilk marotaba tadbirkorlik faoliyati sohasida qo'llanila boshlagan.

Biroq, keyinchalik axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi, faoliyatning yangi sohalari paydo bo'lishi, hayot darajasi va sifatini yaxshilashga bo'lgan ehtiyojning ortishi hamda qadriyatlar yo'nalishlarining o'zgarishi munosabati bilan imij inson xulq-atvorini ijtimoiy tartibga solish va o'zini o'zi tartibga solish shakli sifatida ko'rib chiqila boshlandi.

Sotsiologik yondashuv nuqtayi nazaridan odamlar xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy regulyatorlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ichki ishlar organi xodimi uchun ijtimoiy regulyatorlarning huquqiy jihatdan mustahkamlangan xulq-atvor normalarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

- xolislik;
- qarorlarni qonun doirasida qabul qilish;
- shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymaslik;
- fuqarolar bilan muloqotda nutq madaniyatiga rioya qilish va hokazo [12].

Ichki ishlar organi xodimi tashqi va ichki omillar ta'sirida muayyan xulq-atvor uslubini namoyon etadi. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi ichki ishlar organlariga xizmatga kirayotganida qasamyod qabul qiladi va maxsus huquq normalariga rioya qiladi.

Xizmat vazifalarini bajarish jarayonida ichki ishlar organi xodimi shaxsiy va kasbiy sifat qobiliyatlarini namoyon etadi, bu sifatlarni boshqa odamlar tomonidan ichki ishlar organi xodimi qanday bo'lishi kerakligi to'g'risidagi subyektiv tasavvurlar asosida baholanadi.

Xodimning o'z xatti-harakatlari va so'zlari ustidan o'z-o'zini nazorat qilish darajasi ham muhim rol o'ynaydi. Shu munosabat bilan tashqi regulyator sifatida ijtimoiy normalar va ichki regulyator sifatida shaxsiy omillar o'rtasida o'zaro bog'liqlik kuzatiladi.

Shaxsiy omillar umumiy rivojlanish darajasi, o'zini nazorat qila olish qobiliyati va kasb burchini anglashni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ichki ishlar organi xodimi haqidagi umumiy tasavvur

subyektiv va obyektiv qarashlar uyg'unligidan shakllanadi.

Fransuz psixologi va sotsiologi A.G. Lebon ommaning ishonchini qozonishda shaxsiy jozibaga, ya'ni maftunkorlikka ustuvorlik bergan bo'lsa [8], nemis sotsiologi M. Veber esa xarizmaga, ya'ni o'ziga torta olish qobiliyati, ta'sirchan rahbarlikka ahamiyat qaratgan. "Boshqaruv mashinasi, har qanday mashina singari, dasturga muhtoj bo'ladi, bu dasturni esa unga faqat boshqalardan ajralib turadigan favqulodda qobiliyat bera oladi; bu qobiliyat individ tomonidan shunchaki orttirilgan emas, balki unga tabiat, xudo yoki taqdir tomonidan in'om etilgan bo'ladi" [13].

Shunday qilib, sotsiologik yondashuv nuqtayi nazaridan ichki ishlar xodimi xulq-atvori ijtimoiy mexanizmlar, ya'ni ijtimoiy normalar, qadriyatlar, institutlar va tashkilotlar orqali tartibga solinadi. O'z navbatida, imij ham ijtimoiy tartibga soluvchi mexanizm sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda, imij istalgan sifatlarni, shaxs tipini, uning jismoniy va psixologik xususiyatlarini hamda inson xarakterini o'zida mujassam etgan ideal obyekt sifatida tasavvur qilinishi mumkin.

Ideal obyekt – bu o'rganilayotgan (tadqiq etilayotgan) obyektning model tomon harakati (intilishi) yoki taklif etilgan modelga obyektning mosligini tadqiq etish.

Tahlil jarayonida muvofiqlikni tekshirishda ideal obraz va real holat o'rtasidagi farqlovchi belgilar aniqlanadi. Biroq istalgan (xohish qilingan) va haqiqiy holatni qiyosiy tahlil qilish oddiy tuyulsa-da, biroq uning ideal modelini yaratish murakkab kechadi. Bizga ko'ra, aynan jamoatchilik fikri ichki ishlar organi xodimining ideal qiyofasini (timsolini) shakllantiradi va u ijtimoiy baholash sifatida namoyon bo'ladi, nazorat esa uning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi keltirilgan fikr-mulohazalar, olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagilar taklif etiladi:

1. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash sifatini oshirish, ularni ko'rib chiqishda shaffoflik va tezkorlikni ta'minlash, shuningdek, ichki ishlar organlari faoliyatida *aholi uchun qulay elektron xizmatlar turlari qamrovini bosqichma-bosqich kengaytirish*.
2. Ichki ishlar organlari xodimlarining halol

xizmati, fidokorligi, qahramonlik namunasi hamda fuqarolarga amaliy yordam ko'rsatish bilan bog'liq ijobiy tajribalarini aks ettiruvchi *media va ijtimoiy tarmoqlar uchun mo'ljallangan kontentlar hajmi va qamrovini tizimli ravishda ko'paytirish va efirga berib borish*.

3. Ichki ishlar organlarini faqat tekshiruvchi yoki jazolovchi tuzilma emas, balki fuqarolarga huquqiy, ijtimoiy va profilaktik yo'nalishlarda amaliy yordam ko'rsatuvchi organ sifatida jamoatchilik ongida *mustahkam fikr shakllantirish*.

Foydalanilgan manbalar

1. Мухитдинова Ф. Сиёсий ва ҳуқуқий таълимотлар тарихи. Дарслик. – Т.: ТДҶОИ, 2011. – 19-б.
2. Бобоев Х., Дўстжонов Т., Ҳасанов С., Олламов Я. “Авесто” ва унинг инсоният тараққиётидаги ўрни. – Урганч, “Хоразм”, 2002. – 20–21-б.
3. Макиавелли Н. Государь. Перевод: Муравевой Г. Оригинальное издание: Макиавелли Н. Избранные произведения. – М.: «Художественная литература», 1982. [Электронный ресурс] – Режим доступа <http://lib.ru/POLITOLOG/VFRIAAWELLLL/gosudar.txt>
4. Никколо Макиавелли. Хукмдор. – Т.: “DABR PRESS”, НМУ, 2022. – 86-б.
5. Платон. Диалоги / пер. с древнегреч., сост., ред. и авт. вступит. ст. А.Ф. Лосев; авт. примеч. А.А. Тахо-Годи. – М.: Мысль, 2000. – С.195.
6. Аристотель. (384-322 до н. э.). Этика. Политика. Риторика. Поэтика. Категории / Аристотель. – Минск: Лит., 1998. – С. 284–285.
7. Учение Цицерона о государстве и праве [Электронный ресурс]. URL: http://politia.narod.ru/cicero_laww_and_state.htm
8. Лебон Г. Психология масс. (Электронный ресурс) – Режим доступа: <http://www.gumer.info/bibl/lebon/index.php>
9. Маълумотлар Ўзбекистон Республикаси Криминология тадқиқот институти томонидан жамоатчилик фикрини ўрганиш асосида 2025 йил декабрь ойи ҳолатига кўра келтирилган.
10. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2023. – 3–4-б.
11. Шавкат Мирзиёев. Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. – Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 27-б.
12. Шацкая Е.А. Теоретико-методологические подходы к исследованию имиджа представителей власти (на примере имиджа сотрудника полиции) // Полицейская деятельность, 20019. – № 6. – С. 31–39.
13. Вебер Э.М. Избранные произведения [Электронный ресурс] / Библиотека социологии Гумер. URL: <http://www.gumer.info/bibl/lebon/index.php>



SO'ROQ QILISHDAGI PROTSESSUAL BO'SHLIQLARNING JINOYAT ISHI BO'YICHA HAQIQATNI ANIQLASHGA TA'SIRI: MUAMMO VA YECHIMLAR



MURODOV
Baxtiyorjon Bahodirovich
Toshkent Xalqaro universiteti professori,
yuridik fanlar doktori (DSc), professor



ABDULLAYEV
Akmaljon Yo'Ichiboyevich
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
Dastlabki tergov va surishtiruv kafedrasida o'qituvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada so'roq qilish tergov harakatida mavjud protsessual bo'shliqlarning jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga salbiy ta'siri tahlil qilingan. Xususan, guvoh va jabrlanuvchilarning bila turib yolg'on ko'rsatma berishiga imkon yaratayotgan omillar, so'roq jarayonini videoyozuv orqali qayd etishning yetarli darajada tartibga solinmaganligi, qo'shimcha va qayta so'roq o'rtasidagi protsessual noaniqliklar, tergovga qadar tekshiruv bosqichida ko'rsatma olish bilan bog'liq kolliziyalar tadqiq etilgan. Shuningdek, xorijiy davlatlar qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyoti tahlil qilinib, milliy jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: so'roq qilish, guvoh, jabrlanuvchi, yolg'on ko'rsatma, tergov amaliyoti, jinoyat-protsessual qonunchilik.

Аннотация. В статье исследуется негативное влияние процессуальных пробелов при производстве допроса на установление истины по уголовному делу. Особое внимание уделено факторам, способствующим даче заведомо ложных показаний свидетелями и потерпевшими, недостаточному правовому регулированию видеофиксации допроса, процессуальной неопределенности между дополнительным и повторным допросом, коллизиям, связанным с получением показаний на стадии доследственной проверки. Проанализированы законодательство и правоприменительная практика зарубежных государств, разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по совершенствованию национального уголовно-процессуального законодательства.

Ключевые слова: допрос, свидетель, потерпевший, ложные показания, следственная практика, уголовно-процессуальное право.

Abstract. This article examines the negative impact of procedural gaps in interrogation procedures on establishing the truth in criminal cases. Particular attention is paid to factors contributing to the perjury of witnesses and victims, insufficient legal regulation of video recording of interrogations, procedural uncertainty between additional and repeated interrogations, and conflicts associated with obtaining testimony during the pre-investigation stage. Legislation and law enforcement practices in foreign countries are analyzed, and evidence-based proposals and recommendations for improving national criminal procedure legislation are developed.

Keywords: interrogation, witness, victim, false testimony, investigative practice, criminal procedure law.